

TARIX VA HUQUQ

O‘ZBEKISTON SSRDA QIZIL ARMIYAGA QARSHI ASOSIY JANGLAR (1925-1926-yillar)

Feruz BOBOYEV¹

¹Tarix instituti direktori o‘rinbosari, harbiy tarixni o‘rganish markazi boshlig‘i

KALIT SO‘ZLAR	ANNOTATSIYA
Qurolli harakat, milliy ozodlik harakati, asosiy janglar, qo‘rboshi, Ibrohimbek, qurol-yarog‘, ta‘minot, muhojir, sovet hokimiyati, mustamlakachilik.	Ushbu maqolada 1918–1935-yillarda Turkiston mintaqasida sovet hokimiyatiga qarshi qurolli kurash tarixi yoritilgan. Muallif shu davr oralig‘ida kechgan janglar orasida O‘zbekiston SSR hududida 1925-1926-yillar bo‘lib o‘tgan janglar o‘ziga xos o‘rin egallashini ta‘kidlaydi va 1925-1926-yillarda Tojikiston ASSR, Surxondaryo va Qashqadaryo vohasi O‘zbekiston SSRning asosiy kurash markazi bo‘lganligini alohida ta‘kidlaydi. Maqolada asosiy janglar, ularning natijalari, kuchsiz davom etgan hududlar va uning sabablari hamda kurashning xulosalari, milliy ozodlik harakatining yo‘qotishlari haqida ma‘lumot beriladi.
КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА	АННОТАЦИЯ
Вооруженное движение, национально-освободительное движение, крупные сражения, курбоши, Ибрагимбек, оружие, снабжение, переселенец, советская власть, колониализм.	В данной статье освещена вооруженная борьба против советской власти в Туркестане, которая продолжалась с 1918 по 1935 год. Среди боев в этот период автор отмечает особую роль боёв на территории Узбекской ССР в 1925-1926 годах и констатирует, что в 1925-1926 годах Таджикская АССР, Сурхандарьинский и Кашкадарьинские оазисы особо выделялись как центры сопротивления Узбекской ССР. В статье приведены сведения об основных сражениях, их результатах, участках с более ослабленными позициями и их причинах, а также итогах борьбы и потерях национально-освободительного движения.
KEY WORDS	ABSTRACT
Armed movement, national liberation movement, major battles, kurboshi, Ibrahimbek, weapons, supply, emigrant, soviet power, colonialism.	This article highlights the armed struggle against the Soviet government in Turkestan, which lasted from 1918 to 1935. Among the battles during this period, the author notes the special role of the battles on the territory of the Uzbek SSR in 1925-1926 and states that in 1925-1926 the Tajik ASSR, Surkhandarya and Kashkadarya oases stood out as centers of resistance of the Uzbek SSR. The article provides information about the main battles, their results, areas that remained weak and their reasons, as well as the conclusions of the struggle and the losses of the national liberation movement.

Kirish. Sovet hokimiyatiga qarshi kurash 1925–1926-yillarda O‘rta Osiyo respublikalari orasida O‘zbekiston SSRda keskin davom etganligi bilan alohida ajralib turadi. Kurash rahbarlarining asosiy maqsadi sovet hokimiyati

va ular joriy etgan tartiblarni tugatish, milliy davlatchilikni tiklash, o‘zbek xalqining haq-huquqlari va ozodligini qo‘lga kiritishdan iborat edi. Bu orqali mintaqada sovet hokimiyatining mustamlakachilik siyosatini cheklash, aholining



www.isft.uz

“ISFT” ILMİY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/3-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

manfaatlarini inobatga olish, ular bilan hisoblashish va kamsitilmasligiga erishish ko‘zlangan edi. Bu yerda kurashga umumiy rahbar Ibrohimbek bo‘lsa-da, ayrim hududlarda esa alohida qo‘rboshilar ham yetakchilik qilgan.

Guruhlarni birlashtirish va faolligini oshirish maqsadida 1924-yilning 31-dekabrida Ibrohimbek Hisorda qurultoy chaqirdi [1]. Qurultoyda qizil armiyaga qarshi kurashning keyingi rejalari muhokama qilindi [2; 34]. Qurultoydan so‘ng Ibrohimbek 1925-yil 1-9-yanvarda barcha qo‘rboshilarning harbiy holatini nazoratdan o‘tkazdi. Yanvar-fevral oylarida qizil armiya bilan qo‘rboshilar o‘rtasida jami 14 ta harbiy to‘qnashuv bo‘ldi. Qizil armiya qo‘rboshilarning birlashishiga imkoniyat bermaslikka harakat qilgan [3; 507].

Ibrohimbek bahorgi janglarda jiddiy tayyorgarlik ko‘rib, yigitlarni ruhlantirishga harakat qildi [4]. Natijada 1925-yil bahorda Ibrohimbekning harakatlari kuchayib butun respublikani qamrab oldi. Oqibatda O‘zbekiston SSRning tarkibiy qismi bo‘lgan Tojikiston ASSR Revkomi 1925-yil 18-aprelda respublikada harbiy holat e‘lon qildi. Bu holat 10-iyul kuni bekor qilindi [3; 512-513]. Shu davr oralig‘ida ikki o‘rtada keskin janglar o‘tkazildi. Xususan, 5-mayda Dushanbe rayoni Kamangara qishlog‘idagi jangda Xudoyberdi qo‘rboshi o‘ldirildi, uning guruhidan bir qismi asir olindi va qolganlari tarqatib yuborildi [5]. May oyining o‘rtalarida Ibrohimbek o‘zining barcha guruhlarini Sangto‘dada birlashtirib qizil armiyaning kichik garnizonlarini vayron qildi. Ikki o‘rtadagi janglar 5 soatdan 11 soatgacha davom etgan. Ibrohimbekni Vaxshning o‘ng tomoniga o‘tkazmaslik va Ko‘lobni egallamasligi uchun qizil armiyaning tezkor otryadlari soni ko‘paytirildi [6: 630-631], qo‘zg‘olonchilarning harakatlari cheklandi.

1925-yilning ikkinchi yarmidagi vaziyat oldingi davrga nisbatan yanada keskinlashdi. Tojikiston ASSRda 1925-yilning kuzidan boshlab Ibrohimbekning qo‘rboshilari yo‘qotishlarga uchradi. Dono va Mamatali qo‘rboshilar o‘ldirildi, Egamberdi hujumlariga bardosh berolmay, o‘zining guruhi bilan Afg‘onistonga o‘tib ketishga majbur bo‘ldi [7]. 14-dekabrda qo‘rboshi Mulla Ziyovuddin Sultonobodda taslim bo‘ldi [8]. Shunday qilib, Tojikiston ASSRda 1925-yilgi qizil askarlarga qarshi janglar natijasida Tabarbiy, Payz To‘qsabo, Ostonaqul va Mulla Rajab kabi katta qo‘rboshilar halok bo‘ldi va boshqalariga jiddiy zarbalar berilib guruhlari tarqalib ketdi [7, 9; 140].

1925-yilning oxirida tajribali asosiy qo‘rboshilardan ajralgach, tushkunlikka tushgan Ibrohimbek uchun 1926-yilning bahor va yozi ham muvaffaqiyatli kechmadi [10; 53]. 1926-yilning yozida Baljuvonda turgan Ibrohimbekka qarshi qizil armiyaning hujumlari nihoyatda kuchaytirildi. Bu paytda Ibrohimbek rahbarligida Polvon Dodxoh, Mulla Mirali, Abdulla Dodxoh kabi qo‘rboshilar kurash olib borib, ularning jami yigitlari 600 nafargacha yetardi [7; 50]. Garchi vatanparvarlarning soni oshgan bo‘lsa-da, qizil armiya esa ularga nisbatan qurol-yarog‘lar borasida katta ustunlikka ega bo‘lganligi natijasida Mulla Mirali va Abdulaziz qo‘rboshilar jangda o‘ldirildi. Polvon Dodxoh qizil askarlarning ta‘qibiga bardosh berolmay, o‘z yigitlari bilan Afg‘onistonga o‘tib ketdi. Abdulla Dodxoh esa yigitlarini tarqatishga majbur bo‘ldi [7; 51]. 1926-yil 23-31-mayda Ko‘lobdagi asosiy janglarda 4 nafar qo‘rboshi o‘z guruhini tarqatib yuborishga majbur bo‘ldi. Shu yilning bahor-yoz oylarida Laqay va Hisor viloyatlaridagi janglarda 267 kishi o‘ldirildi, 20 nafar qo‘rboshi



www.isft.uz

“ISFT” ILMİY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/3-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

va 199 nafar yigit asir olindi. 25 nafar qo‘rboshi va 237 nafar ishtirokchi taslim bo‘ldi [11; 166, 3; 580]. Katta ustunlikka ega bo‘lgan qizil armiya Ibrohimbekka ketma-ket zarba berishi natijasida u ko‘plab yo‘qotishlar uchramaslik maqsadida Afg‘onistonga o‘tib ketishga majbur bo‘ldi. Natijada Ibrohimbek 1926-yilning 22-iyunga o‘tar kechasi haftaning dushanba kuni 50 nafar qurollangan yigiti bilan Saroykamar uchastkasi orqali Amudaryodan Afg‘onistonga o‘tib ketadi [7; 52, 13, 10; 58].

Surxondaryo vohasida ham 1925-yilning yozida bo‘lib o‘tgan janglar natijasida asosiy rahbar bo‘lgan Xurrambekning qo‘rboshilari orasida parchalanish boshlandi. Xususan, O‘tanbek 1925-yil iyuldagi janglarning ko‘pida yo‘qotishlarga uchrab chekinishga majbur bo‘ldi [9; 322]. Hujumlarga bardosh berolmay 27-avgustda Husayn Komandir o‘zining 27 nafar yigiti bilan Shildiroq qishlog‘ida taslim bo‘ldi [14, 6; 644]. Shuningdek, Qashqadaryo vohasida sovet hokimiyatiga qarshi kurashgan Mulla Abduroziq¹ qizil armiyaning 12-o‘qchi polki otliq bo‘linmasi komandiri Y.V. Smelniskiy bilan 3-marta to‘qnashdi. Janglar 1925-yil aprelda Denov, iyulda Shirdog‘ qishloqlari hamda Hazrat Sulton tog‘larida yuz berdi. Uchinchi to‘qnashuv 9 soat davom etib, Mullo Abduroziq bu jangda qattiq qarshilik ko‘rsatsa-da, chekinishga majbur qilindi [15; 84-85].

Surxon vohasida sovet hokimiyatiga qarshi kurash ko‘lami 1925-yilning kuzidan kuchaydi. Bu, birinchidan, qo‘rboshilarning kurashda faolligini oshirish maqsadida Amir Olimxon tomonidan vakillarning yuborilishi; ikkinchidan, Surxon vohasi qo‘rboshilarining faoliyati lashkarboshi Ibrohimbek tomonidan nazoratdan o‘tkazilishi; uchinchidan, Surxon vohasi qo‘rboshilari Xurrambek boshchiligida

qurultoylar o‘tkazilishi natijasida edi [16; 8-9]. 1925-yil dekabr – 1926-yil yanvar oylarida qo‘rboshilarning faoliyatini tahlil qilganda ikki muhim jihatni nazardan chetda qoldirmaslik lozim. Birinchidan, ushbu paytda qo‘rboshilarning harakatlari faollashgan bo‘lsa, ikkinchidan esa, ikki o‘rtadagi janglarda qator zarbalarga ham uchradi. Masalan, 1925-yil 30-dekabrda Yangibozor rayonidagi jangda o‘ldirilgan Salom qo‘rboshining [9; 140, 3; 579] boshi Mirshodidagi bozorda ko‘plab mitinglarda namoyish qilinib, keyin vahshiylarcha yoqib yuborildi [9; 140]. Sovet hokimiyati bunday jirkanch targ‘ibotlar orqali milliy ozodlik harakati rahbarlarini jazolanganligini ko‘rsatishga, aholi orasida kuchli qo‘rquv va vahima uyg‘otishga, kurashning tugatilganligiga xalqni ishontirishga uringan. Aslida esa bu kabi xatti-harakatlar sovet hokimiyatiga nisbatan xalqning g‘azabi va nafratini yanada oshishiga olib keldi.

Surxon vohasida 1925-yilning oxiridagi yo‘qotishlar Xurrambek uchun ancha og‘ir bo‘ldi. U 1926-yil 1-yanvarda guruhlarini birlashtirishga kirishib, yana 200 nafargacha kengaydi [9; 140]. 25-fevralda Xurrambekning qo‘shini Shildiroqdagi qizil armiya garnizoniga hujum qilinib, to‘la ishg‘ol qilindi [17; 152]. 1926-yil martda Surxondaryo viloyatidagi Xurrambek boshchiligidagi kuchlar qariyb to‘liq ravishda Bobotog‘ tog‘larini tashlab bir qismi Qabodiyon rayoniga, bir qismi esa Vaxsh daryosining chap tomoniga joylashgan. O‘z joylarini tashlab ketishiga quyidagilar sabab bo‘ldi:

Birinchidan, Vaxsh daryosining chap qirg‘og‘idagi aholi maskanlari tog‘li hududlardan tashkil topganligi sababli bu joylar qo‘rboshilar uchun tabiiy ravishda yashirinish qo‘rg‘oni bo‘lib xizmat qildi. Bu sovet harbiy

qismlari tomonidan qo‘rboshilarning ta‘qib qilinishini qiyinlashtirdi.

Ikkinchidan, Qabodiyon rayonida ochlik darajasi Bobotog‘ga nisbatan biroz kamroq edi. Shuningdek, yangi hududlarga o‘tishning yana bir sababi, Xurrambekning Afg‘onistonda yashab turgan amir hamda muhojirlar bilan aloqalarni yanada kuchaytirish xohishi ham edi. Afg‘onistondan o‘tgan muhojirlar barchasi Xurrambekni sovet hokimiyatiga qarshi kurashning yetakchi rahbari sifatida ko‘rdi va uni qo‘llab-quvvatlab turdi [17; 624].

1926-yil 6-iyunda Eshniyoz Yunusov boshchiligidagi ko‘ngillilar otryadi Boysundagi janglar natijasida qo‘rboshilar Bobonazar asir olindi, Abdumurod qattiq yaralandi [18]. Iyun-iyul oylaridagi qator kurashlar natijasida 29-iyunda Boysunda Mustafiqulbek, 18-iyulda esa Qabodiyonda Abdumurod qo‘rboshilar asir olindi [19; 30]. Xurrambek 1926-yil 15-iyulda vaziyatni tahlil qilish maqsadida O‘rta Bobotog‘dagi Bibichekkada qurultoy chaqirganda qizil askarlarning qo‘qqisidan qilgan hujumi natijasida qo‘rboshi Rahmonberdi va 18 nafar yigit o‘ldirildi [19; 2, 19; 30]. Shunday qilib, 1926-yil iyul-avgust oylarida Surxon qo‘rboshilari uchun juda murakkab va tahlikali vaziyat yuzaga kelgan. Qo‘rboshilar uchun aholidan keng ko‘lamda yordam olishning imkoni yo‘qligi, qizil armiya va ko‘ngillilar otryadining doimiy ravishda ta‘qibi harakat ishtirokchilarini holdan toydirib qo‘ydi. Uning ustiga ochlik va iqtisodiy qiyinchiliklar, qurol-yarog‘ hamda o‘q-dori muammosi ham ularga jiddiy xavf soldi. Mana shunday muammolar qo‘rboshilarning xorijga ketishga, taslim bo‘lishga yoki jang qilib o‘lishga majbur qildi. 1926-yilning iyul-avgust oylari Surxon qo‘rboshilarining mag‘lubiyatli davrlari sifatida belgilanadi². Bunday og‘ir va

qiyin vaziyatda sovet hokimiyatiga qarshi kurashda hech qanday natijaga erishib bo‘lmashligini inobatga olib, Xurrambek piyoda yigitlariga o‘z uylariga ketishga ruxsat berib [20], o‘zi esa qolgan otliq yigitlari bilan Afg‘onistonga o‘tib ketdi.

Qashqadaryo vohasida ham 1926-yilning bahoridan boshlab qizil armiyaga qarshi janglar yana qaytadan avj olib ketdi. 12-o‘qchi polkining otliq bo‘linma komandiri F.V. Predko 1926-yil fevraldan boshlab Qashqadaryo vohasidagi qo‘rboshilarga qarshi kurashni kuchaytirdi. 1926-yil 2-martda Mulla Abduroziq va F.V. Predko o‘rtasida Denovbolo qishlog‘ida keskin janglar yuz berdi. Bu jangda Mulla Abduroziq qizil armiya komandiri F.V. Predkoni tuzoqqa tushirish maqsadida oldindan reja ishlab chiqdi. Mulla Abduroziq qizil askarlar yetib kelishi bilanoq, o‘zi uchun qulay nuqtalarni egalladi. Ikki o‘rtada bo‘lib o‘tgan kurash 6 soat davom etib, qizil armiya komandiri F.V. Predkoning otryadi katta talafot ko‘rib, jang maydonini tashlab ketishga majbur qilindi [15; 85]. Bundan tashqari, Mulla Abduroziqning guruhi 1926-yil 31-martda G‘ilon qishlog‘idagi qizil armiya garnizoniga hujum uyushtirib, uni butunlay vayron qildi [19; 56]. Mulla Abduroziq yoz oylarida ham bir necha kichik janglar o‘tkazdi va 14-avgustda qo‘lga olindi [19; 2]. Yetakchi rahbarlardan Tangri Berdi Dodxoh ham 1926-yil 26-aprelda Kitob rayonida bo‘lgan jangda asirga tushdi [21; 22]. U 15-iyulga qadar tergov qilindi va otib o‘ldirildi [23; 40].

Zarafshon vohasida (Buxoro va Samarqand viloyatlari) sovet hokimiyatiga qarshi kurash boshqa hududlar bilan qiyoslanganda eng kuchsiz davom etdi. Zarafshon viloyatida 1925-yilning yozida bir nechta kichik to‘qnashuvlardan tashqari avgust oyida 3 ta



asosiy jang bo'ldi. 18-avgustdagi jangda Shomurod qo'rboshi qo'lga olinib, otib tashlandi [24]. 22-avgustda Nurota tog'laridagi jangda qo'zg'olonchilar joylashgan qal'a vayron qilindi va qo'rboshi Rustam Polvon qo'lga olindi [25]. 28-avgustda Buxoro atrofidagi jangda qo'rboshi A'zamxo'ja o'ldirildi [26; 313]. Shuningdek, 1925-yil fevralda Samarqandda qo'rboshilar katta yo'qotishga duchor bo'ldi. Bu muvaffaqiyatsizliklar qo'rboshilarning yigitlari orasida ruhiy tushkunlikni keltirib chiqardi. Bu paytda Hamroqulbek qo'rboshi o'z yigitlarining bir qismini tarqatgan [26; 309]. Mirza Polvon bilan qizil armiya qismlari o'rtasida mart oyida 6 ta to'qnashuv davomida uning ko'pgina yigitlari harakatdan chetlatildi [26; 309]. Mirza Polvon Shullukli Nayman qishlog'idagi Mulla Alimboyning xonadonida xiyonat yo'li bilan 1925-yilning 7-aprelida qizil armiya tomonidan qo'lga olindi [28, 26; 311, 28; 52-53]. 1925-yilning yozi va kuzidagi janglar natijasida Zarafshon vohasida qo'zg'olonchilar katta yo'qotishlarga duchor bo'ldi. Samarqand [29, 30, 31, 32, 33] va Zarafshon³ viloyatlarida harakat rahbarlarining o'ldirilishi, asir olinishi kurash ko'lamini pasaytirdi. 1926-yilning fevral-mart oylarida qurolli harakat asosan Jo'ra Aminning guruhlarini tomonidan olib borildi. Biroq u ham 1926-yil 27-iyunda jangda o'ldirildi [34; 145]. Jo'ra Amin o'limidan keyin rahbarsiz qolgan yigitlari tarqalib ketdi [19; 2]⁴. 1926-yil 30-iyul kuni Jondor qishlog'ida Hayit Polvon ham jang maydonida o'ldirildi [19; 2]. Shundan so'ng Zarafshon vohasida sovet hokimiyatiga qarshi kurash namoyishlar va mitinglar shaklida davom etdi.

Xorazm vohasida 1925-yildagi qurolli harakatning kuchayish dinamikasi quyidagi holatlar bilan belgilanadi: 1. Xorazm vohasi

bilan Turkmaniston SSRdagi kurash rahbarlari o'rtasida uzviy aloqalarning mavjudligi; 2. Turkmaniston SSRdan Xorazm vohasiga qurolli guruhlarning kirib kelishi; 3. Eronda yashovchi muhojirlar tomonidan qo'llab-quvvatlanishi edi. Qurolli harakatning pasayish dinamikasi esa yuqoridagi jarayonlarning teskarisi bilan bog'liq. 1925-yilning noyabr oyiga qadar harakatlar keng ko'lamda olib borildi⁵. Ammo 1925-yilning dekabr oyi va 1926-yilning yanvar oyida harakat darajasi pasaydi.

Xorazm viloyatida 1926-yil mobaynida kichik janglar davom etdi. Xorazmda faol harakat qilgan Sa'dulla bolaga nisbatan harbiy siquvlar kuchaytirilib, uni Turkmaniston SSRga o'tib ketishga majbur qilindi. 1926-yilning avgustiga qadar uning Xorazm viloyatiga o'tishiga qattiq qarshilik qilindi. Ammo qizil armiya Oqyop qishlog'ida Sa'dulla bolaning hujumlarini qaytara olmadi. Sa'dulla bola guruhining o'sishiga va faolligini oshishiga, birinchidan, yigitlarining qamoqdan qochib unga kelib qo'shilishi, ikkinchidan, Taxta rayonida harakat qilayotgan Ag'a bola va boshqalarning u bilan birlashishi sabab bo'ldi. 1926-yilning 10-avgustidan to 15-sentyabriga qadar Sa'dulla bola, Jalibarmoq va Jonbarmoqlarning guruhlarini bilan qizil armiya o'rtasida keskin janglar bo'lib, unda ikkala tomondan ham ko'plab qurbonlar bo'ldi [35; 1-2; 35; 94-106]. Biroq bu janglarda ikkala tomon ham biror-bir aniq natijaga erisha olmadi. Shuning uchun qizil armiya o'zining keyingi harakatida qo'rboshilarga qarshi harbiy choralarni kuchaytirdi. Natijada sentyabr-dekabrda bir nechta kichik guruhlarning faoliyati tugatildi.

Xulosa. 1925-1926-yillardagi kurash natijalaridan quyidagi xulosalarga kelish mumkin:



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/3-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

1. Qurol-yarogʻ, oʻq-dori va moddiy taʼminot borasida qoʻrboshilardan katta ustunlikka ega boʻlgan qizil armiya yetakchi kurash rahbarlarining faoliyatini tugatishga majbur qildi. Yetakchi kurash rahbarlarining janglarda oʻldirilishi, asir olinib, qatagʻon qilinishi va muhojirlikka ketishi oqibatida guruhlar parchalandi. Janglarda koʻplab yigitlar qurbon boʻldi.

2. Oʻrta Osiyo respublikalari orasida sovet hokimiyatiga qarshi kurashning markazi 1925-1926-yillarda Oʻzbekiston SSR va uning tarkibiy qismi boʻlgan Tojikiston ASSR edi. Ushbu yillarda kechgan qonli janglar oqibatida kurashning markazlari tugatildi va keyingi

asosiy harakatlar boshqa respublikalarga koʻchdi.

3. Sovet hokimiyati turkiy xalqlarni boʻysundirish uchun juda qattiq harakat qilsa-da (1925-yil 1-avgustdan 1926-yil 1-avgustgacha faqatgina Tojikiston ASSRda oʻldirilgan, asir olingan va taslim qilingan qoʻrboshilar 109 nafar va kurash ishtirokchilari 1358 nafarni tashkil etgan. Oʻrta Osiyo respublikalari boʻyicha esa rahbarlar 246 nafar va ishtirokchilar 2876 nafarni tashkil etgan), biroq ularning irodasini butunlay bukaolmadi. Oʻzbek xalqining erk, ozodlik va oʻzining haq-huquqlari uchun kurashlari keyingi yillarda yana davom ettirildi.

¹Mulla Abduroziq taxminan 1896-yilda Kitob tumanining Joviz qishlogʻida oʻziga toʻq oilada tugʻilgan. Mullo Abduroziq 1923-yilning 26-aprel kunida Ochilbekning guruhi bilan birgalikda qizil armiyaning 48-dviziyasi eskadronining bir qismini yakson etadi, bu jangda Urgut militsiyasining bir guruhi ham qirib tashlanadi. 1924-yilning aprel oyida Denov qishlogʻida koʻknori va qora doridan sarhush boʻlgan qizil armiyaning 32-diviziyasi alohida eskadronining 17 ta qizil askari va 3 ta militsioner Mullo Abduroziq tomonidan asirga olinadi va oʻldirib yuboriladi.

²1926-yil 24-iyuldagi janglarda Sharshara qishlogʻida (Denovdan 35 verst janubiy sharqda) Xurrambekning oʻnboshisi Muhammadi oʻzining guruhi bilan taslim boʻldi, qoʻrboshi Erniyozning guruhi parchalandi, 7-avgustda Hisorda Sohib komandir taslim boʻldi. Doʻrmon urugʻining qoʻrboshisi Toshmat qurolsizlantirilib, ot-ulozsiz Afgʻonistonga oʻtib ketishga majbur qilindi.

³1925-yil oktyabr oyida Mulla Juma, Otamurot va Gʻijduvonda Jaʼfarxoʻja, Sirojxoʻja; noyabr oyida Mamanazir (Buxorodan 60 chaqirim gʻarbda Shoyusuf degan joyda), Hasan Afgʻon qoʻrboshi (Gʻijduvon tumaniga qarashli Xoʻjapeshku kentida) ham jangda oʻldirildi.

⁴“Ozod Buxoro” gazetasining 1926-yil 23-iyuldagi 84-sonida Joʻra Aminga tegishli chorvalar haqida maʼlumot eʼlon qilingan. Unda keltirilishicha, Joʻra Aminning 200 ta qoʻyi, 1 ta tuyasi, 2 ta eshagi boʻlgan. Qoʻrboshining oʻlimidan soʻng uning chorvasidan xabardor boʻlgan katta chorvador mulla Jabbor Sattorov va Tursunboy Avezovlar ularni hukumatga topshirmoqchi ekanligini maʼlum qildi. Natijada Joʻra Aminning chorvasi Xayrobod kentidagi “Qoʻshchi”lar ixtiyoriga yuborildi.

⁵Oʻzbekiston GPU Xorazm viloyat boʻlimining 73-sonli maʼlumotnomasida keltirilishicha, 1925-yilning oktyabr oyida Xorazm vohasida guruhlarining harakatlari kuchayganligi kuzatiladi. Shu paytda Xiva uyezdidagi Oq Darband volostiga gʻarbdan rahbari nomaʼlum boʻlgan 500 nafar turkman otliqlari kirib keldi. Undan tashqari Bayramjikaning 100 kishilik, Hazorasp qishloq sovetida Gula-Madining 100 kishilik, Tamish va Gʻazovot qishloq sovetlarida Jalibarmoqning guruhi sovet tuzumiga qarshi kurashayotgan edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston PAA, 58-fond, 1-ro‘yxat, 623-ish, 255-varaq.
2. Ражабов Қ. Бухорога қизил армия босқини ва унга қарши кураш. – Тошкент: Маънавият, 2002.
3. Иркаев М. История гражданской войны в Таджикистане. – Душанбе: Ирфон, 1971.
4. RGVA, f. 25895, op. 1, d. 827, l. 1-2.
5. РГАСПИ, ф. 17, оп. 33, д. 441, л. 10.
6. Пограничные войска СССР. 1918-1928. Сборник документов и материалов. – М.: Наука, 1973. С. 630-631.
7. Ўзбекистон ФА Тарих институти жорий архиви, 2-дафтар, 49–50-варақлар.
8. Мулла Зиёвуддин таслим бўлди / Қизил Ўзбекистон. 1925 йил 21 декабрь.
9. Ўзбекистон ПАА, 58-фонд, 1-рўйхат, 614-иш.
10. Назаров Н. Муҳаммад Иброҳимбек лақай. – Тошкент, 2006.
11. История таджикского народа. Том 3. Книга первая переход к социализму (1917-1937). – Москва. 1964.
12. Иброҳимбек Афғонистонга қочди // “Камбағал деҳқон”. 1926 йил 7 июль;
13. Василевский Л. Чекистские были. – Москва: Молодая гвардия, 1978.
14. Сдача крупного басмача / Правда Востока. – № 193. 30 августа 1925 г.
15. Равшанова Г. Қашқадарёда миллий қаршилик ҳаракати тарихидан (1920–1930-йиллар). – Қарши: Насаф, 2010.
16. Ўзбекистон ПАА, 58-фонд, 2-рўйхат, 598-иш.
17. Ўзбекистон ПАА, 58-фонд, 1-рўйхат, 624-иш.
18. Разгром банды Абду Мурата и Баба – Назара / Правда Востока. 21 июнь 1926 г.
19. Ўзбекистон ПАА, 58-фонд, 1-рўйхат, 696-иш.
20. Ликвидация остатков басмачества / Правда Востока. 4 августа 1926 г.
21. Конец главы басмачества Кашкадарьинский области / Правда Востока. 1 мая 1926 г.
22. Mashhur qo‘rboshi Tangri Berdi Dodxoh qo‘lga tushdi // “Qizil O‘zbekiston”. 1926-yil 18-may. Джурабаев Г. Гилян. – Ташкент, 1939.
23. Усмонов Ф. Шомурод босмачи ўлдирилди / Қизил Ўзбекистон. 1925 йил 14 сентябрь.
24. Қизил Ўзбекистон. 1925 йил 16 сентябрь.
25. Ўзбекистон ПАА, 58-фонд, 1-рўйхат, 576-иш.
26. Ўзбекистон МА, Р-86-фонд, 1-рўйхат, 2644-иш, 655-варақ.
27. Қорабеков А. Ўтмишдан дараклар. – Самарқанд, 2011.
28. Босмачиларнинг қолган қутганлари / Қизил Ўзбекистон. 1925 йил 20 июль.
29. Самарқанд музофоти босмачилардан тозаланди / Қизил Ўзбекистон. 1925 йил 17 август.
30. Қосимбеков Ш. Турдибой қўрбоши ўлдирилди / Қизил Ўзбекистон. 1925 йил 17 сентябрь.
31. Абдулла Понсод таслим бўлди / Қизил Ўзбекистон. 1925 йил 18 сентябрь.
32. В Ходженском уезде басмачество ликвидировано / Прада Востока. – №. 209. 17 сентября 1925 г.
33. Ўзбекистон ПАА, 58-фонд, 1-рўйхат, 625-иш.
34. Хоразм ВДА, 590-фонд, 1-рўйхат, 56-иш.